

**YANGI AVLOD TA'LIM ISLOHOTLARI – JAMIYAT TARAQQIYOTINING RIVOJLANISH POYDEVORI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19191126>

**G'afurov Mirzo Ulug'bek Majidovich**

*Farg'ona viloyat Pedagogik mahorat markazi*

*«Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus*

*ta'lim metodikalari» kafedrasi katta o'qituvchisi, e-mail: mirzoulugbekgovurov9@gmail.com*

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada O'zbekistonda yangi avlod ta'lim islohotlarining normativ-huquqiy asoslari, amaliy natijalari va xalqaro baholash dasturlari kontekstidagi samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari, inklyuziv va dual ta'lim mexanizmlari hamda xalqaro baholash natijalari asosida mavjud muammolar aniqlanadi. Statistik ma'lumotlar va normativ hujjatlar tahlili asosida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim islohotlari, TIMSS, PISA, inklyuziv ta'lim, dual ta'lim, raqamli ta'lim muhiti, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim sifati.*

**Аннотация**

*В данной статье анализируются нормативно-правовые основы реформ образования нового поколения в Узбекистане, их практические результаты и эффективность в контексте международных оценочных программ. В исследовании рассматриваются процессы модернизации системы образования, механизмы инклюзивного и дуального обучения, а также выявляются существующие проблемы на основе результатов международных оценочных исследований. На основе анализа статистических данных и нормативных документов разработаны предложения по повышению качества образования.*

**Ключевые слова:** *реформы образования, TIMSS, PISA, инклюзивное образование, дуальное образование, цифровая образовательная среда, компетентностный подход, качество образования.*

**Abstract**

*This article analyzes the regulatory and legal foundations of next-generation educational reforms in Uzbekistan, their practical outcomes, and their effectiveness within the context of international assessment programs. The study examines the processes of educational system modernization, the mechanisms of inclusive and dual education, and identifies existing challenges based on the results of international assessments. Based on the analysis of statistical data and normative documents, recommendations aimed at improving the quality of education are proposed.*

**Keywords:** *educational reforms, TIMSS, PISA, inclusive education, dual education, digital learning environment, competency-based approach, quality of education.*

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi mamlakatning raqobatbardoshligini belgilovchi strategik omil sifatida qaralmoqda[1; 12-b]. Inson kapitalini rivojlantirish zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lib, ta'lim sifati

## **Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish**

---

to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy o'sish, innovatsion taraqqiyot va mehnat bozori talablariga bog'liq ekanligi amalda isbotlangan[2; 45-b].

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifat ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar asosida baholash va malakali kadrlarni tayyorlash jarayonlari jadallashdi[3; 87-b]. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishlarida davlat rahbari ta'lim va pedagoglarning rolini ta'kidladi: "Iqtisodiyot rivojlanishi, yurtimiz va farzandlarimiz kelajagi faqat va faqat ta'lim va muallimga bog'liq"[4; 7-b]. Ushbu fikr pedagoglarga munosib sharoit yaratish, maktab va bog'chalarni jihozlash, zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish, chetdan mutaxassislar jalb etish kabi islohotlar bilan izchil qo'llab-quvvatlanmoqda[4; 8-b].

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ta'lim tizimining zamonaviy modelini belgilab berdi[5; 11-b]. Qonunda quyidagi tamoyillar huquqiy jihatdan mustahkamlangan:

- Ta'limning uzluksizligi;
- Inklyuzivlik va teng imkoniyatlar;
- Masofaviy ta'lim shakllarini tatbiq etish;
- Dual ta'lim mexanizmi orqali nazariy va amaliy bilimlarni integratsiyalash[5; 12-b].

Shuningdek, 2026-yil 5-fevral PF-19-sonli farmonga muvofiq maktabga tayyorlov guruhlarini tizimi joriy qilinib, oliy ma'lumotli pedagoglar va oliy ta'lim bitiruvchilari tomonidan ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshiriladi[6; 15-b].

Ta'limning milliy taraqqiyotdagi roli nafaqat zamonaviy davrda, balki jadidchilik harakati davrida ham teran tushunilgan. Ismoil Gasprinskiy (1851–1914) va Mahmudxo'ja Behbudiy kabi ma'rifatparvarlar boshlang'ich ta'limni ona tilida tashkil etish orqali millat taraqqiyotiga hissa qo'shishni maqsad qilganlar[11; 14-b]. Ularning g'oyalari mustabid tuzum davrida to'liq tatbiq etilmagan bo'lsa-da, bugungi kunda ta'lim islohotlariga ruhiy va metodologik zamin yaratmoqda. Janubiy Afrika Respublikasi Stellenboss universitetida aytilishicha, "Ta'lim inqirozi – bu millat inqirozidir"[12; 9-b], bu esa ta'lim sifatini oshirishning strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, Konstitutsiya va "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonun unga asos bo'ladi[7; 33-b]. Inklyuziv dastur maktablarda maxsus sinflar, mos jihozlar, o'qituvchilarni qayta tayyorlash ishlarini qamrab oladi va har bir bolaga teng ta'lim imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan[7; 34-b]. Shu bilan birga, dual ta'lim modeli orqali o'quvchilar nazariy bilimni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarni esa ish joyida egallaydilar[8; 39-b].

Ta'lim sifatini xalqaro miqyosda baholash O'zbekiston ta'lim tizimi samaradorligini tahlil qilishda muhim vosita hisoblanadi. TIMSS 2023 tadqiqotida 8-sinf o'quvchilari matematika bo'yicha 421 ball bilan 32-o'rinni, tabiiy fanlar bo'yicha 396 ball bilan 39-o'rinni egalladi[9; 56-b]. Shu bilan birga, PISA 2025 tadqiqotida 9050 nafar 15 yoshli o'quvchilar ishtirok etib, xalqaro hamkorlikda funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash va real hayot ko'nikmalarini baholash imkoniyati yaratildi[10; 22-b]. Bu natijalar O'zbekistonning ta'lim tizimini xalqaro standartlar bilan integratsiyalashuvi va kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etayotganligini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shu aytish joizki, O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar:

- Mustahkam normativ-huquqiy asosga ega;
- Inklyuziv va dual ta'limni rivojlantirishni o'z ichiga oladi;
- Xalqaro baholash dasturlari bilan integratsiyalashgan;
- Kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvni tatbiq etadi [2; 47-b].

## **Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish**

---

Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish va yosh avlodni mustaqil, ijodkor va raqobatbardosh qilib tarbiyalash kelajakdagi davlat taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2022. Paris: UNESCO, 2022.
2. World Bank. Human Capital Project Report. Washington, DC: World Bank, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish strategiyasi. Tashkent, 2020.
4. Mirziyoyev, Sh. Nutqlar to'plami: Ta'lim sohasidagi islohotlar. Tashkent, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Ta'lim to'g'risida (23.09.2020).
6. Prezident farmonlari to'plami. PF-19. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari. Tashkent, 2026.
7. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida (2019).